

ITALYAN YOZUVCHISI ALESSANDRO MANZONI IJODIDA SOTSIOLINGVISTIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

Otaxonova Munisxon Jonibek qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti

2-kurs magistranti

munisaotaxonova429@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada italiyalik yozuvchi Alessandro Manzoning hayoti va ijodi, uning qator asarlari va o'sha davrda tutgan o'rnini haqida so'z boradi. Manzoni tarixiy haqiqatlarni o'z asarlarida ommaga ochib beradi. Uning ijodi XVII asr Italiyasining ijtimoiy va ma'daniy voqeligini ochib beradi. Manzoning asarlari chuqur insoniylik ruhi, kuchli ahloqiy tuyg'u va tarixiy voqealilar bilan xarakterlanadi. Uning asarlari sodda, ammo ayni paytda nafis hamdir. Manzoni barcha davrlarning eng buyuk italyan yozuvchilaridan hisoblanadi va uning bekatror asarlari ilmiy tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: sotsiologiya, roman, ma'rifatparvarlik, dialekt, personaj, ziyolilar qatlami, liberalizm, urf-odat.

Аннотация. В данной статье рассказывается о жизни и творчестве итальянского писателя Алессандро Манзо, ряде его произведений и роли в тот период. Манзони раскрывает публике исторические истины в своих произведениях. Его работы раскрывают социальную и культурную реальность Италии 17 века. Произведениям Манзо свойственны глубокий человеческий дух, сильное нравственное чувство и исторические события. Его работы просты, но в то же время элегантны. Манзони считается одним из величайших итальянских писателей всех времен, а его шедевры помогают формировать научное мышление.

Ключевые слова: социология, роман, просветительство, диалект, персонаж, интеллигенция, либерализм, традиция.

Abstract. This article talks about the life and work of the Italian writer Alessandro Manzo, a number of his works and his role in that period. Manzoni reveals historical truths to the public in his works. His work reveals the social and cultural reality of 17th century Italy. Manzo's works are characterized by deep human spirit, strong moral feeling and historical events. His works are simple but elegant at the same time. Manzoni is considered one of the greatest Italian writers of all time, and his masterpieces help shape scientific thinking.

Key words: sociolinguistics, novel, enlightenment, dialect, character, intelligentsia, liberalism, tradition.

Kirish. Sotsiologiya — til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan ijtimoiy fan. Bu soha tilni ijtimoiy kontekstda, ya'ni madaniyat, ijtimoiy qatlamlar, etnik guruhlar va boshqa omillar nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Sotsiologiya shuningdek, tilning qanday qilib ijtimoiy identifikatsiya va aloqa vositasi sifatida ishlatilishini o'rganadi.

Til va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik — sotsiologiyaning asosiy masalalaridan biridir. Bu bog'liqlik tilning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishi, qaysi ijtimoiy guruhlar o'rtasida qanday farqlar mavjudligi, va til orqali qanday ijtimoiy identifikatsiyalar yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Alessandro Manzoni italiyalik yozuvchi, shoir va dramaturg bo'lib, 1785-yil 7-martda Milanda tug'ilgan. U o'zining mashhur "I Promessi Sposi" (Juftlarning ahdlashuvi) romani orqali italiyalik yozuvchilar orasida zamonasining eng buyuk yozuvchilaridan biri sifatida tamal toshini qo'yadi. Manzoni ziyolilar oilasida tug'ilgan. Uning ta'limi ma'rifatparvarlik va liberalizm qadriyatlariga asoslangan edi. 1808 yilda u Enrichetta Blondel bilan oila quradi va farzandli bo'ladi.

Manzoni adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. Uning bu davrdagi eng yuksak asarlari qatorida Napoleon Bonapartning o'limiga bag'ishlangan "Il combattimento di Tarquinio e Lucrezia" (Tarkunio va Lukretsiya jangi, 1807) va "Il cinque maggio" (Beshinchi may, 1821) she'rlari bor. Manzoni roman va she'rlaridan tashqari bir qancha ocherk va tanqidiy asarlar ham yozgan. U italyan tilini adabiy til sifatida qo'llash tarafdori bo'lgan va Italiyada romantizmining rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

Manzoni italyan adabiyotida Dante Alegieridan keyingi eng muhim shaxslardan biri hisoblanadi. Uning ijodi nafisligi, o'ziga xosligi, axloqiy va tarbiyaviyligi bilan ajralib turadi. U romannavistlar orasida muhim shaxs bo'lib, uning ijodi Italiya adabiyoti va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Manzoni tomonidan qilingan eng dolzarb jihatlardan biri bu lingvistik tanlovdir. Muallif, aslida, ziyolilar sinfi bo'lgan florensiyaliklardan ilhomlanadi, ammo keng qamrovli auditoriyaga tushunarli bo'lgan italyan tilini tanlaydi. Italyan tili tarixiga chuqur ta'sir ko'rsatgan bu tanlovga bir qator omillar, jumladan, geografik yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha italiyaliklar uchun tushunarli bo'lgan asar yaratish istagi sabab bo'lgan. "Lotin tilidan kelib chiqqan italyan tili XIX asrdan boshlabgina adabiy til me'yorlari asosida sayqallashtiriladigan bo'ldi. Italyan adabiyotida so'zlashuv tili va badiiy tilda hozirgi kunga kelib deyarli tafovut kuzatilmaydi".¹

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Alessandro Manzoni asarlarida dialektlarning o'rni, til va ijtimoiy kontekstni tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. U o'z asarlarida italyan tilining mahalliy shakllarini va dialektlarini o'z ichiga olib, bu orqali ijtimoiy qatlamlar, madaniy an'analar va qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi.

Manzoni asarlarida Milan va uning atrofidagi dialektlar keng qo'llaniladi. Bu dialektlar orqali u o'z vaqtidagi ijtimoiy va madaniy muhitni, shuningdek, qahramonlarning xarakterini va shaxsiyatini yoritadi. Misol uchun, "I promessi sposi" (Juftlarning ahdlashuvi) romanida qahramonlar o'rtasidagi muloqot dialektlarning ta'siri ostida rivojlanadi.

Dialektlar orqali Manzoni turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi. Yuqori ijtimoiy qatlam vakillari va pastki qatlam vakillari o'rtasidagi til farqlari, ularning ma'naviyati va hayot tarzini ochib beradi. Masalan, oddiy odamlar bilan aristokratlar o'rtasidagi muloqotlar til orqali sezilarli darajada farqlanadi. Dialektlar yordamida Manzoni qahramonlarining xarakterini chuqurroq tasvirlaydi. Ularning muloqotidagi dialektal elementlar, ularning kelib chiqishi, ijtimoiy pozitsiyasi va urf-odatlar haqida ma'lumot beradi. Bu esa o'quvchiga qahramonlarning ichki dunyosini yanada yaxshi tushunishga yordam beradi. Dialektlarning qo'llanilishi, asarlarda real hayot va muloqotning aks etishini ta'minlaydi. Manzoni oddiy xalq tilini tasvirlash orqali o'z davridagi ijtimoiy haqiqatlarni ochib beradi va bu orqali o'quvchini o'sha zamon muammolari bilan tanishtiradi. Dialektlar, Manzoni asarlarida madaniyatning bir qismi sifatida ko'rinadi. Mahalliy an'analar va urf-odatlar, til orqali ifodalangan dialektlar yordamida aks ettiriladi. Bu esa o'quvchiga o'sha davr madaniyatini va ijtimoiy hayotini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

O'zbek tadqiqotchilari orasida sotsiolingvistika tadqiqotlari asosan o'zbek tilining ijtimoiy qatlamlar, dialektlar, kod almashinuvi va boshqa ijtimoiy omillar bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga e'tibor qaratgan bir nechta olimlar mavjud:

-Abdulaziz Jumayev o'zbek tilidagi dialektal farqlarni, ularning ijtimoiy kontekstdagi rolini o'rganadi. Uning tadqiqotlari tildagi ijtimoiy qatlamlar va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

- Tursunbek Tashkentov sotsiolingvistik tadqiqotlar sohasida "O'zbek tilidagi kod almashinuvi" mavzusida ishlari bilan tanilgan. Tashkentov tilning o'zgarishi, madaniy ta'sirlar va ijtimoiy kontekstlarni o'zaro bog'laydi.

¹ O'zbek va italyan bolalar adabiyotida qahramonlar xarakterlarining qiyosiy tahlil metodi asosida yoritilishi. (J.Rodari va X.To'xtaboyev ijodi asosida), B.Ergashova, So'z san'ati jurnali.

-Dilshod A'zamov til va ijtimoiy identifikatsiya masalalarini o'rganadi. U o'z tadqiqotlarida til orqali qanday ijtimoiy rol va identifikatsiyalar yuzaga kelishini tahlil qiladi. Shuningdek, bu sohada dunyo bo'ylab ko'plab olimlar bu sohada muhim tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, William Labov, sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri hisoblanadi. U o'zining "Sociolinguistic Patterns" (1972) asarida tilning ijtimoiy qatlamlar bilan bog'liqligini tahlil qiladi. U Nyu-York shahrida o'zgaruvchi leksikalar va aksentlar orqali ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Labovning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, odamlarning aksentlari ijtimoiy pozitsiyalarini va shahar ichidagi ijtimoiy farqlarni aks ettiradi. Yoki Janet Holmes, "An Introduction to Sociolinguistics" (1992) asarida sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari va usullarini bayon etadi. U gender, ijtimoiy status va til o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi. Holmes, ayollar va erkaklar o'rtasida til ishlatishda qanday farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Basil Bernstein "Class, Codes and Control" (1971) asarida til va ijtimoiy sinf o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. U ikki asosiy til kodini — "o'tkazuvchi" va "deyishli" kodlarni ta'riflaydi. U ta'kidlaydiki, tilning qanday ishlatilishi odamning ijtimoiy kelib chiqishi va ta'lim darajasiga bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Ushbu maqolada bir nechta tahlil metodlaridan foydalangan holda tadqiq qilish mumkin. Misol uchun, tarixiy tahlil orqali tadqiqot ob'ektining tarixiy konteksti o'rganilishi mumkin. Bu metod voqealar, qarorlar va ijtimoiy o'zgarishlarni tarixiy davrlar bo'yicha tahlil qiladi. Keyingi o'rinda qiyosiy tahlil metodini olishimiz mumkin. Bu tahlil ikki va undan ortiq ob'ektini, hodisani yoki jarayonni taqqoslashga asoslangan: turli tillar, madaniyatlar yoki ijtimoiy tizimlarni taqqoslash.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Manzoni tildan turli personajlar orasidagi ijtimoiy va ma'daniy farqlarni ifodalash uchun foydalanadi. Misol uchun, ziyolilarning nutq uslubi rasmiyligi va nafisligi bilan ajralib turadi, o'rta qatlamning gapirish uslubi esa ochiq-oydin va tushunarli bo'ladi. Bu lingvistik farq XVII asrdagi Italiyaning turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ijtimoiy ma'daniy farqlarni ta'kidlashga yordam beradi.

Alessandro Manzoni ijodi XVII asr Italiyasining ijtimoiy va madaniy voqeligini tasvirlashga yordam beradigan sotsiolingvistik elementlarga boy.

Manzoni asar negizida "haqiqat" bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi, uning fikricha mifologiya va adabiy asar haqiqat va uydurmani o'zida uyg'unlashtirishi kerak edi. Uning fikricha, she'riyat umuman olganda san'at axloqiy funktsiyaga ega edi, ular jamiyatni yaxshilash uchun ta'lim-tarbiya berishlari kerak edi.

1825 yilda Manzoni XVII asrda Lombardiyada sodir tarixiy roman bo'lgan "I Promessi sposi" ni birinchi marta nashr qildiradi. Asar tezda muvaffaqiyat qozonadi, lekin Manzoni o'z ishidan qoniqmaydi va uni qayta ko'rib chiqish va tuzatishga qaror qiladi. "I Promessi sposi"ni ikkinchi marta 1840-yilda nashr etiradi va bu asar italyan adabiyotining durdonasiga aylangan. "I Promessi sposi" italyan milliy romani sanaladi. Bu asar italyan millatining birdamligi va erkinlik qadriyatlarini yoyishga hissa qo'shgan asar hisoblanadi.

Manzoni "I Promessi sposi" asarida kelib chiqishi Italiyaning turli xil tumanlaridan bo'lgan personajlarni ifodalash uchun har xil dialektlardan foydalanadi. Masalan, roman qahramoni Renzo Tramaglino milan dialektida gapirsa, din arboblardan hisoblanmish Don Abbondio italyan tilida gapiradi. Romanda Italiya hayotidagi qiyinchiliklar haqida, jumladan vabo va vaqtinchalik hokimiyat zulmiga duchor bo'lgan ikki yosh oshiq Renzo Tramaglino va Lusiya Mondella haqida hikoya qilinadi. Ular turmush qurish uchun ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi, ammo ularning taqdir yo'llari oxir-oqibat tutashadi, garchi asardagi personajlar ularni ayirishga harakat qilsalarda buni alamga oshirolishmaydi. Zo'ravonlik, zulm, va majburiyatlarga qaramay ular birga bo'lishadi. Asar italyan adabiyotining durdona asari hisoblanib, italyan madaniyati va tiliga katta ta'sir ko'rsatgan.

Manzoni tildan turli personajlar orasidagi ijtimoiy va madaniy farqlarni ifodalash uchun foydalanadi. Manzoni tildan XVII asr Italiyasining tarixiy voqeligini ifodalash uchun foydalanadi. Masalan, qahramonlarning tili ularning geografik va ijtimoiy kelib chiqishiga mos keladi. Manzoni ijtimoiy lingvistikasi uning ishining muhim elementi bo'lib, uni XVII asr Italiya jamiyatini tushunish uchun noyob va qimmatli hujjatga aylantirishga yordam beradi.

Alessandro Manzoni asarlarida sotsiolingvistika bilan bog'liq ko'plab parchalar mavjud. "I promessi sposi" romanidan bir necha misollar keltirish mumkin, bu parchalar til va ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatishga yordam beradi.

Roman davomida Manzoni qishloq odamlarining muloqotidagi dialektal elementlarni o'z ichiga oladi. Masalan, Renzo va Lucia o'rtasidagi muloqotda: "Eh, Lucia, che bellezza, te vedo e mi scotta il cuore." (Eh, Lucia, Naqadar go'zalsiz, sizni ko'rdimu, yuragimda bir tuyg'u paydo bo'ldi.) Bu yerda bosh qahramon Renzo o'z mintaqasiga xos tilni ishlatib, o'z qishloq an'anasini aks ettiradi. Dialektal so'zlar ularning kelib chiqishini va ijtimoiy pozitsiyasini ko'rsatadi.

Romaning boshqa joyida, yirik mulkdor va qishloq aholisi o'rtasida ijtimoiy tafovutlar aks ettiriladi: "Signore, non mi faccia ridere, io non parlo con la plebe." (Janob, kulgimni qistatmang, men oddiy omi odamlar bilan gaplashmayman.) Bu muloqotda markiz o'z ijtimoiy mavqesidan foydalangan holda qishloq odamlarini kamsitadi. Bu esa ijtimoiy ixtilof va sinf farqlarini namoyon qiladi.

Renzo va Lucia o'rtasidagi sevgi munosabatlari: "Lucia: - Renzo, il nostro amore è più forte di ogni ostacolo!" (Renzo, bizning sevgimiz har qanday to'siqdan ham kuchliroqdir.) Bu dialog ularning o'zaro munosabatlaridagi mustahkamlikni ko'rsatadi, shuningdek, ularning ijtimoiy pozitsiyalari va kelajakdagi qiyinchiliklar haqida ma'lumot beradi.

To'y marosimlariga oid tasvirlar: "La festa era un evento che univa tutta la comunità, ogni gesto e parola seguivano le tradizioni." (Tadbir, har bir imo-ishora va so'z an'analarga amal qilgan holda, butun jamiyatni birlashtirgan hodisa bolgandi.) Bu muloqot madaniy urf-odatlar va qishloq hayotining birligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Manzoni dialektlardan foydalanishi nafaqat realizmni oshirish, balki ijtimoiy tabaqani belgilashga ham xizmat qiladi. Qahramonlarning nutq uslublari va lug'at tanlashlari ko'pincha ularning ijtimoiy mavqegini aks ettiradi, yuqori toifadagi personajlar ko'proq rasmiy tildan foydalanadi va past tabaqadagi personajlar xalq dialektlaridan foydalanadi. o'quvchilarga ular bilan chuqurroq tanishish imkonini beradi. Bu Manzoning Italiya jamiyati tasvirida til va ijtimoiy o'ziga xoslik o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi va shu bilan birga o'quvchilarga ular bilan chuqurroq tanishish imkonini beradi. U "I Promessi Sposi" ni keng tarqalgan venetsiya dialektida emas, balki florensiya dialektida yozishga qaror qilgani tilshunoslikda ataylab qilingan islohatlardan edi. U standartlashtirilgan italyan tilini milliy birlik va madaniy taraqqiyot uchun zarur deb hisoblagan.

Manzoning adabiy muvaffaqiyati va standartlashtirilgan italyan tilini himoya qilishi zamonaviy italyan tilining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning "I Promessi Sposi" romani Florensiya dialektini milliy tilning asosi sifatida shakllanishiga hissa qo'shdi va kelgusi avlodlar uchun Italiyaning lingvistik ko'rinishni shakllantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Alessandro Manzoni ricordato al popolo e alla gioventu" da Augusto Alfani. 1888
2. "A proposito di Alessandro Manzoni" da Giovanni Mari. Giugno 1928
3. "Storia della letteratura italiana" Ottocento e novecento da Giuliano Manacorda. Novembre 1995

² I Promessi Sposi, cap IV

³ I Promessi Sposi, cap I

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

4. B.Ergashova, O'zbek va italyan bolalar adabiyotida qahramonlar xarakterlarining qiyosiy tahlil metodi asosida yoritilishi.(J.Rodari va X.To'xtaboyev ijodi asosida), So'z san'ati jurnali.
5. Storie e testi di letteratura italiana per stranieri. Paolo E. Balboni, Mario Cardona. 2002
6. Labov, W. (1972). *Sociolinguistic Patterns*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
7. Rajabov, M. (2024, February). HOW TO TEACH VOCABULARY IN PRE-SCHOOL AND SCHOOL. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 31-33).
8. <https://www.adrianodigregorio.com>
9. <https://www.brittannica.com/biography/Alessandro-Manzoni>
10. <https://ru.wikipedia.org>